

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA MULTIMEDIA**TEXNOLOGIYALARINING RO'LI****Karimjonova Odinaxon Jahbarali qizi**

Andijon Davlat Pedagogika Instituti,

Maktabgacha ta'lism yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14056818>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lism muassasalarida multimedia texnologiyalaridan foydalanishning afzallikkari va maktabgacha yoshdagi boalarga ta'lism berish jarayonida zamонавиъ axborot texnologiyalarida foydalanish, multimedya savodxonligini oshorish hamda multimedya texnologiyalarini mazmuni, afzalligi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: texnologita, multimedya, axborot, maktabgacha ta'lism, multimedaniyat, mediya ta'lism, axborot texnologiyalari, multimediyali taqdimot.

THE ROLE OF MULTIMEDIA TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

***Abstract.** This article talks about the advantages of using multimedia technologies in preschool educational institutions, the use of modern information technologies in the process of teaching preschoolers, increasing multimedia literacy, and the content and advantages of multimedia technologies.*

Key words: technology, multimedia, information, preschool education, multiculturalism, media education, information technologies, multimedia presentation.

РОЛЬ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

***Аннотация.** В данной статье говорится о преимуществах использования мультимедийных технологий в дошкольных образовательных учреждениях и использовании современных информационных технологий в процессе обучения дошкольников, повышении мультимедийной грамотности, а также о содержании и преимуществах мультимедийных технологий.*

Ключевые слова: технологии, мультимедиа, информация, дошкольное образование, мультикультурлизм, медиаобразование, информационные технологии, мультимедийное представление.

“Multimedia - bir vaqtning o‘zida turli ko‘rinishdagi axborotlardan: matn, grafika, tovush va boshqalardan foydalanishni ko‘zda tutgan foydalanuvchi interfeysining konsepsiysi”.

“Multimedia bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida axborotning an'anaviy va original turlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishidir”. Multimedia bu maxsus texnologiya bo'lib, dasturiy va texnik moddiy ta'minot asosida kompyuterda bir vaqtning o'zida matnli, tasviriy axborotni tovushli va harakatli holda ifodalash imkoniyatidir. Multimedia - tasvirli ma'lumot bilan ishlashga qodir bo'lgan vosita hisoblanadi. Axborot texnologiyalarini har qanday darajadagi ta'lim tizimiga kiritish bugungi kunda jahon ta'lim jarayonini rivojlantirishning eng barqaror tendensiyalaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, multimedia orqali ta'lim sohasida keng foydalanish kundan-kunga rivojlanib bormoda.

Multimedia texnologiyalari orqali o'qitish o'rganish samaradorligini oshiradi, chunki ulardan foydalanish o'quvchilarni axborotni idrok etish jarayoniga jalb qilishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunning 53-moddasida maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlash vazifalar belgilangan bo'lib, jumladan, ta'lim tarbiya jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish ko‘zda tutilgandir. Hozirgi kunda barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodning intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularni har tomonlama rivojlangan shaxs etib voyaga yetkazish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Asosan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning yuksak bilim egalashida multimedia ta'limi ham muhim o'rinda turadi.

Multimedia ta'limi orqali biz bolalarda milliy qadiriyatlarni video rolik shaklida jonlantirishimiz ham mumkun. Ta'lim sohasida ham yangi axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan samarali va yuqori natijalarga olib kelmoqda.

Hozirda ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari ta'lim jarayonining muhim negizi bo'lib, yoshlarning yangi axborotlarga bo'lgan talablarini qondirishga xizmat qilmoqda. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya olayotgan katta va maktabga tayyorlov guruhlarida aynan 5–7 yoshli bolalar tarbiyalanadi.

Ulardagi intellektual salohiyatni shakllantirishning boshlang‘ich davri ham xuddi shu yoshdan boshlanadi aynan shu sababli hozirgi kunda maktabgacha ta'limda multimedia ta'limiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yosh bolalar tevarak-atrofga, voqeja va xodisalarga, narsa va buyumlarga qiziquvchan bo'ladi. Hamma narsani ushlab, paypaslab, yurgizib, harakatga keltirib ko'rishni yoqtiradilar.

Kompyuter o'yinlari tarbiyalanuvchilarning ushbu qiziquvchanlik xususiyatini oshiradi.

Natijada, ularning aqliy rivojlanishi shakllana boradi.

Multimediali kompyuter o‘yinlari tarbiyalanuvchilarning qiziquvchanlik xususiyatini oshirishini quyidagilar asosida yaqqol ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi: ♦ Ekranda ko‘rsatiladigan o‘yin obyektiga animatsiya samarasi berilgan bo‘lishi va ular doimiy ravishda harakatlanib turishida;

Tovushida;

Musiqada;

Animatsiyada

Multifikatsiyada;

Multimediali kompyuter texnologiyasidan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish bir vaqtning o‘zida bolalaming kompyuter savodxonligi shakllanishiga ham olib keladi.

Animatsiyali ma’lumotlaming insonga ta’siri katta bo‘lib, undan. MTMlari ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish bolalar diqqatini ko‘proq jalb qilish xususiyatiga ega. Multimediali ta’lim bir vaqtning o‘zida ham ko‘rish, ham eshitish orqali bilim olish uchun samarali ekanligi hayotiy tajribada allaqachon isbotlangan. MTM tarbiyalanuvchilari monitor ekranida namoyish etiladigan materialami o‘rgana borsalar va kompyuterdan foydalanish bo‘yicha yetarlicha ko‘nikma hosil qilsalar, maktabda boshlang‘ich sinfda informatika fanini o‘rganishga, kelajakda esa akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv yurtida kompyuterdan foydalana olish malakasiga to‘liq ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, tarbiyalanuvchilaming kompyuterdan foydalanish jarayonida mantiqiy tafakkurlari rivojlanadi, bilim olishga havaslari va ishtiyoqlari ortadi, dunyoqarashlari shakllanadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki maktabgacha yoshdagи boalarning aqliy salohiyatini raqamli tehnalogiyalar asosida rivojlantirish, ularning aqliy rivojlanish salohiyatini dunyo tendensiyalari darajasiga ko‘tarish davr talabidir. Multimedia texnologiyasidan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish bir vaqtning o‘zida bolalarning kompyuter savodxonliklarini shakllanishiga ham olib keladi.

Hayot va faoliyatning deyarli barcha sohalariga asta-sekin kirib boradigan kompyuterlashtirish zamonaviy odam, maktabgacha yoshdagи bolalarni tarbiyalash va o‘qitishga yondashuvlarda o‘ziga xos tuzatishlar kiritadi. Mahalliy va xorijiy tadqiqotlar shuni isbotlaydiki maktabgacha ta’lim muassasalarida bolaning intellektini va shaxsini rivojlantirish uchun kompyuterlardan foydalanish nafaqat mumkin, balki maqsadga muvofiqdir.

REFERENCES

1. <https://saarj.com/wpcontent/uploads/paper/ACADEMICIA/2021/FULLPDF/ACADEMICIA OCTOBER2021/10.352%2C%20Turdiyev%20Azamat%20Gayratovich.pdf>
2. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrdagi "Maktabgacha ta'lif va tarbiya to'g'risida"gi 595-sonli Qonunning 53-moddasi. Mediasavodxonlik va u nima uchun kerak? – hurriyat (uzhurriyat.uz)
3. https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-talim-tashkilotlarining-talim-tarbiya-jarayonida-multimediaga-asoslangan-kompyuter-o'yinlarini_o'llash/viewer
4. <https://www.journals.uz/wp-content/uploads/2020/06/ADU-Xalqaro-konferensiya-4.pdf>
5. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumiy-o'rta-talim/Media-va-axborot-savodxonligi.htm>